

O'QUV MUASSASALARIDA DAVLAT TILIDA ISH YURITISH MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH

Normurodova Zarifa Ruziqulovna

Termiz davlat universiteti o'qituvchisi

Ismatullayev Muborak Sunnatulloyevna

Termiz davlat universiteti 1-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot o'quv muassasalarida davlat tilida ish yuritish madaniyatini shakllantirishning dolzarbligi, nazariy asoslari va amaliy mexanizmlarini yoritishga bag'ishlangan. Ishda birinchi navbatda, davlat tilining rasmiy hujjatchilikdagi huquqiy o'rni va ta'lim tizimi hujjatlariga qo'yiladigan me'yoriy talablar tahlil qilinadi. Shuningdek, ish yuritish samaradorligini oshirishning asosiy omili sifatida pedagogik va ma'muriy xodimlar savodxonligini tizimli ravishda oshirish zarurati asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: hujjat, tadqiqot, ariza, davo, taqdimot, davlat, targ'ibot, xizmat xatlari, xizmat yozishmalari, tilxat, dalolatnoma, Tushuntirish xati.

FORMATION OF A CULTURE OF WORKING IN THE STATE LANGUAGE IN EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Abstract: This study is devoted to highlighting the relevance, theoretical foundations and practical mechanisms of forming a culture of work in the state language in educational institutions. First of all, the work analyzes the legal role of the state language in official documentation and the regulatory requirements for documents of the education system. Also, the need to systematically improve the literacy of pedagogical and administrative staff as a key factor in increasing the efficiency of work is substantiated.

Keywords: document, research, application, appeal, presentation, state, propaganda, official letters, official correspondence, receipt, act, Explanatory letter.

ФОРМИРОВАНИЕ КУЛЬТУРЫ РАБОТЫ НА ГОСУДАРСТВЕННОМ ЯЗЫКЕ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ

Аннотация: Данное исследование посвящено освещению актуальности, теоретических основ и практических механизмов формирования культуры работы на государственном языке в образовательных учреждениях. Прежде всего, в работе анализируется правовая роль государственного языка в официальной документации и нормативные требования к документам системы образования. Также обосновывается необходимость систематического повышения грамотности педагогического и административного персонала как ключевого фактора повышения эффективности работы.

Ключевые слова: документ, исследование, применение, обращение, представление, государство, пропаганда, официальные письма, официальная переписка, квитанция, акт, пояснительное письмо.

O‘zbekiston mustaqilligi hech bir inkorsiz ona tilimiz rivoji uchun ham keng yo‘l ochdi. Davlatimizning asosiy qonuni - Konstitutsiyamizda, “Davlat tili haqida”gi Qonun va boshqa rasmiy hujjatlarda o‘zbek tilining huquqiy maqamlari aniq ko‘rsatib berilgan.¹ Bir necha asrlardan buyon goh yuksak rivoj-u shuhrat topgan, gohida nopisandlik va kamsitishlardan ezilgan, ammo yaxshi kunlarga yetmoq umidi so‘nmagan tilimiz chinakam munavvar kunlarga hech qanday shikastlarsiz yetib keldi.

Ayniqsa, bugungi kunda “Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari” degan ustuvor g‘oya asosida o‘z taraqqiyotining tamomila yangi bosqichiga dadil qadam qo‘yayotgan mamlakatimizda barcha sohalar dagidek davlat tilining o‘rni va nufuzini oshirish borasida jarayonlari boshlandi. Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o‘ttiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqida bu borada qilinadigan keng ko‘lamli ishlarning to‘laqonli tarixini chizib berar ekan, bu ishlarning natijalarini quyidagicha ifoda etdi: “Muxtasar aytganda, har birimiz davlat tiliga bo‘lgan e‘tiborni mustaqillikka bo‘lgan e‘tibor deb, davlat tiliga ehtirom va sadoqatni ona Vatanga

¹ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi “ O‘zbekiston Respublikasining davlat tili haqida ”gi Qonun.

ehtirom va sadoqat deb bilishimiz, shunday qarashni hayotimiz qoidasi- ga aylantirishimiz lozim”.Ular bir fuqaroning ong-u shuurida ana shu qoidaning salomatligi va sobitligi yurt yuksalishining ham, mamlakat mustaqilligi muhofazasi muntazamligining ham garovidir. Davlatimiz rahbari 2019-yil 21-oktyabr kunida imzolagan “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonida alohida qayd etganidek, “bugungi globallashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o‘z milliy manfaatlarini ta’minlash, bu borada, avvalo, o‘z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga jiddiy ahamiyat qaratishi tabiiydir”. Prezidentimizning mazkur Farmonida o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi maqomi hayotimizning barcha jabhalarida to‘la-to‘kis joriy qilinishi uchun chora-tadbirlar aniq belgilab berilgan, mazkur maqomning doimiyligi uchun davlat va boshqa tashkilotlar, fuqarolarning mas’ullik intizomi ko‘rsatilgan. Respublikamiz ijtimoiy hayoti va xalq xo‘jaligining barcha sohalarida davlat tilida jahon o‘lchovlariga mos tarzda ish yurita olish, milliy-ma’naviy qadriyatlarni puxta egallash, o‘z fikrini yozma shaklda to‘g‘ri ifodalay bilish kabi talablar barkamol mutaxassislar tayyorlashning muhim shartidir. Shu maqsadda amaldagi o‘quv dasturi asosida akademik litsey talabalari uchun ilk marotaba “Davlat tilida ish yuritish”darsligi yaratildi.² O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi qonuni o‘zbek tilining siyosiy-ijtimoiy maqomini ta’minladi va uning rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Xususan, ushbu qonunning 8, 9, 10-moddalarida hujjatlarning davlat tilida tayyorlanishi, boshqaruv organlari, muassasa, korxona va tashkilotlarda ish davlat tilida yuritilishi ta’kidlangan. Shu maqsadda ta’lim muassasalarida o‘quvchi va talabalarning o‘zbek tilini milliy- ma’naviy qadriyat sifatida puxta egallashi, o‘z fikrini yozma shaklda to‘g‘ri ifodalay olishi, nutqiy savodxonlikka erishishi uchun

hujjat matnlarini tuzish ko‘nikmalari shakllantiriladi. Jumladan, akademik litseylarda “Davlat tilida ish yuritish” darslari joriy etildi. Bu fandan namunaviy o‘quv dasturi tuzildi va shu asosda “Davlat tilida ish yuritish” darsligi yaratildi. Ta’lim sohasida, xususan, o‘quv muassasalarida “Davlat tilida ish yuritish” fanini o‘qitish va unga oid darslikni

² N.Mahmudov , A. Rafiyev ,I.Yo‘ldoshev Davlat tilida ish yuritish akademik litseylar uchun .Toshkent 2007.

qo‘llash milliy tilning nufuzini oshirish, professional kadrlarni tayyorlash va jamiyatning ma’naviy rivojlanishiga asos bo‘ladi. Ushbu darslik filologiya, pedagogika va boshqa yo‘nalishlar talabalari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, rasmiy hujjatlar tuzish, ish yuritish qoidalari va til normalarini tushuntiradi. Uning o‘quv jarayoniga kiritilishi bir qancha muhim ahamiyat kasb etadi.

“Davlat tilida ish yuritish” darsligini o‘quv muassasalarida qo‘llash o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi rolini oshiriladi. Talabalar va o‘quvchilar rasmiy hujjatlar (buyruqlar, ariza, hisobotlar va boshqalar)ni to‘g‘ri tuzishni o‘rganib, tilga hurmat va sadoqatni singdiradilar. Bu, o‘z navbatida, milliy g‘urur va vatanparvarlik tuyg‘usini oshiradi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, davlat tiliga e’tibor mustaqillikka e’tibor bilan tengdir. O‘quv muassasalarida bunday darslik orqali yosh avlod tilning boyligi va an’analari chuqur anglaydi³, bu esa milliy madaniyatni saqlashga hissa qo‘shadi. Kelajakdagi mutaxassislar (o‘qituvchilar, rahbarlar, davlat xizmatchilari) uchun rasmiy ish yuritish ko‘nikmalari kerak. Darslikda hujjatlarning turlari, ularni rasmiylashtirish qoidalari, terminologiya va uslubiy xususiyatlar berilgan. Bu talabalarga hujjatlarni xatosiz va standartlarga mos tartibda yaratish, ish yuritishda til normalariga rioya qilishni o‘rgatadi. Professional muloqotda o‘zbek tilidan samarali foydalanishni ta’minlaydi. Natijada, bitiruvchilar ish joylarida ya’ni maktablar, idoralar va korxonalarda davlat tilida ish yuritishni bemalol amalga oshirishi mumkin, bu esa mehnat bozorida ularning raqobatbardoshligini oshiradi. Ko‘plab oliy o‘quv yurtlari - Urganch davlat universiteti, Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida bu fan o‘qitilishi va darsliklar mavjudligi shuning dalilidir. Masalan, kundalik hayotimizda ko‘p foydalaniladigan hujjat turi arizani olaylik .

Arizaning zaruriy qismlari:⁴

- 1.Ariza yo‘llangan muassasaning yoki mansabdor shaxsning nomi.
- 2.Ariza yozuvchining turajoyi, vazifasi, ismi, otasmi va familiyasi.
- 3.Hujjatning nomi (Ariza).

³ Raupova L Nutq madaniyati darslik .- Toshkent : INNOVATSIYA -ZIYO,2019-140

⁴ M.Aminov,A.Madaliyev,N.Mahkamov,N.Mahmudov,Y.Odiluv.Davlat tilida ish yuritish, - Toshkent,2021.

- 4.Asosiy matn (taklif, iltimos, shikoyat).
- 5.Arizaga ilova qilinadigan hujjatlar nomi (agar zarur deb topilsa).
- 6.Ariza yozuvchining imzosi, ismi va otasmi bosh harf- lari, familiyasi.
- 7.Ariza yozilgan vaqt (yil, kun va oy

Agar arizaning ushbu zaruriy qismlari to‘g‘ri va rasmiy uslubda yozilmasa bu ariza qabul qilinmaydi va qaytariladi. Shuning uchun ham o‘quv muassalarida davlat tilida ish yuritish madaniyatini shakllantirish kerak.

Xulosa qilib aytganda, o‘quv muassasalarida davlat tilida ish yuritish milliy tilni rivojlantirishning muhim mexanizmi va ta’lim tizimining ajralmas qismidir. Bu jarayon tilning ilmiy salohiyatini oshirib, ta’lim sifatini yuksaltirib, jamiyatning birdamligini mustahkamlab, kelajak avlodlarni milliy ruhda tarbiyalashga xizmat qiladi. Davlat siyosatining ushbu yo‘nalishdagi izchil amalga oshirilishi O‘zbekistonning hujjatchilik sohasini hamda intellektual va madaniy rivojlanishini takomillashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. “O‘zbekiston Respublikasining davlat tili haqida”gi Qonuni.
3. N.Mahmudov, A. Rafiyev, I.Yo‘ldoshev. Davlat tilida ish yuritish akademik litseylar uchun.Toshkent: 2007.
4. Raupova L. Nutq madaniyati: Darslik. – Toshkent: INNOVATSIYA -ZIYO, 2019. B.140.
5. M.Aminov, A.Madaliyev, N.Mahkamov, N.Mahmudov, Y.Odilov. Davlat tilida ish yuritish, – Toshkent,2021.